



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION RIVOJLANISH  
VAZIRLIGI

# “БАШАРИЯТ МАЊАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОЙЙ МЕРОСИННИГ АҲАМИЯТИ”

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

## МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher  
Navoiy*

580

5 февраль 2021 йил  
Бухоро



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ  
ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР  
ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ  
МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ**

мавзудаги республика онлайн илмий-амалий конференция

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021 йил 5 февраль. Бухоро

*Тўпламдан республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари ўрин олган. Мақолаларда Алишер Навоий ижодининг турли қирралари, уни ўрганиши масалаларига доир илмий кузатишлар жамланган бўлиб, мазкур соҳага оид барча мутахассисларга мўлжалланган.*

**Тўплаб нашрга тайёровчилар:**  
Р.Ражабова, Н.Қодирова, Н.Ўроқова

**Тақризчилар:**  
Ф.ф.д. Л.Шарипова, ф.ф.н. Т.Асадов

Мазкур илмий тўплам Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 октябрдаги 4865-сонли “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги қарори ижроси доирасида амалга оширилди.

## «NAVOIY –NON...»

*Yusupova Dildora Yunus qizi,*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti

*Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,*

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori

*Navoiy – non. To ‘sma. Unga borar yo ‘ldan qoch,  
G‘ashlik qilma, to ‘rt yonni ham yoritarkan toj.  
Navoiyga o‘zin ursa, urma kofirni,  
Axir, nonga musulmon-u kofir birday och.*

Halima Xudoyberdiyeva

Ulug‘ donishmand shoir Alisher Navoiy haqida so‘z aytmoq ham og‘ir, ham oson. Uning og‘irligi shundaki, millat quyoshi («shams ul-millat») sifatida salkam olti yuz yildan beri yashab kelayotgan, nafaqat yashab kelayotgan, balki turkiy ma‘naviyat dunyosida yo‘lchi yulduzdek chaqnab turgan, asrlar davomida «buyuk shoir va mutafakkir» (xalq), «mamlakat ustuni, davlat tayanchi», «ash‘or kishvarining sulton» (H.Boyqaro), «naziri yo‘q kishi» (Z.Bobur), «marjon to ‘la dengiz» (xalq), «Ajam xalqlari (ulug‘ amirning) sadosini qulog‘iga sirg‘a qildi, dunyoning barcha burchaklari bu daryo gavhari ila to‘lib toshdi» (D.Samarqandiy), «g‘azal mulkining sulton» (M.Shayxzoda), «bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir» (I.Karimov) kabi yuzlab e’tiroflarga sazovor bo‘lgan, obro‘-e’tibori kun sayin yuksalib, ijodiy merosi nur misol qalblarni isitayotgan zot haqida ulug‘lardan o‘tkazib aytib bo‘lmas...

Hazrat mir Alisher Navoiy dahosi haqida so‘z aytmoqning osonligi shunda: o‘zbek xonardonida tug‘ilgan har bir go‘dak borki, esini taniy boshlaganda unga ota, ona, non, suv, Vatan, mакtab so‘zлari qay darajada o‘rgatilsa, shuuriga singdirilsa, havo, suv, nondek zarur; ota, ona, Vatan,maktabdek qadrli kalomlar sirasidan *Navoiy bobomiz* degan nom ham o‘rin oladi. (Ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyning nomi barchamiz uchun qadrli ekanligining ilk sabablaridan biri ham shundadir, balki...) Keyinchalik bu nom qalbimizga iftixor tuyg‘usini indiradigan *hazrat Alisher Navoiy bobomiz, ulug‘ bobomiz, dunyo tanigan bobokalonimiz* kabi qator e’tiroflar bilan boyib boraveradi. (Yo‘limiz tushib Moskva yoki Baku shaharlarida bo‘lsak, Yaponianing Soka universiteti hovlisiga borsak, mir Alisher Navoiy sharafiga qo‘yilganyuksaklikdagi haykallar o‘zbek millatiga mansubligimiz – ulug‘likka daxldorlar avlodidan ekanligimizga ishora etishi bizni faxrlantirishi tabiiy, albatta.) Ha, go‘dakligimizdan oq nomi tilimizga tushgan, tilimizdan dilimizga ko‘chgan yaqinimiz haqida aytishga hamisha iliq so‘zimiz bor...

Alisher Navoiyni pir tutmagan, o‘ziga ustoz deb bilmagan yoki ul zotning

tabarruk nomlariga, pok ruhlariga murojaat etmagan o‘zbek shoir-u shoirasini uchratish qiyin. Fikrimiz dalili sifatida aytishimiz mumkinki, zabardast o‘zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva birgina «Buyuk qushlar» to‘plamining o‘zida Navoiy dahosiga o‘ttiz bir marta murojaat etadi. Bu murojaatlar goh bilvosita, goh bevosita tus olganligini kuzatamiz. Jumladan,

H.Xudoyberdiyeva «Bu o‘t...» she’rida Uvaysiy ruhiga yukunib yozadi:

*Hazrati Navoiy-ku nazm bobida shoh o‘tdi,  
Mangu takror o‘limgay endi bu yangroq o‘tdi.  
Ammo ko‘ngil uyida yoqmasdan chiroq o‘tdi,  
Ammo bu sohir ko‘ngil dog‘ o‘tdi-ku, momojon,  
Yorab, shoh yigit umri toq o‘tdi-ku, momojon.*

Shoira salkam olti asr berida turib hazrat Navoiyning ruhiyatiga kirib boradi. U haqida «shoh yigit», «sohir ko‘ngil» kabi betakror tashbehlarni qo‘llay turib bir haqiqatni o‘z o‘rnida asl holicha aytadi: «*Mangu takror o‘limgay endi bu yangroq*».

Ha, dunyoning hech bir burchagida hech bir shoir-u davron, beqiyos iste’dod egasi mana 580 yildan buyon bu ulug‘ zotni takrorlagan emas.

Shoira yurtdoshlariga, ayniqsa, yoshlarga yuzlanar ekan, ularning shunchaki kun o‘tkazishlarini istamaydi. Ahli turkiyning har bir farzandini «shu tabarruk zot»ga o‘xshashini yoki «ul ulug‘» tavsiflaganidek bunyodkor farhodlar, yurtparvar mehinbonular, shiddatkor shirinlar bo‘lishini dildan istaydi. Bu istak shoirani nafaqat tirikligida, hatto jon jismini tark etganda ham ruhida, ruhiyatida qolaveradi va borliqdan yangi-yangi navo baxshlarni izlaydi...

*Qabrimda ham tunlar turib, sham yoqib,  
Orangizdan Navoiyni izlayman.* («Izlayman» she’ridan)

Shoira nega o‘z qavmlari, eli ichidan Navoiyni izlaydi?! Chunki Navoiy «...asarlari to‘lig‘icha jamiyat tarbiyasiga qaratilgan. U shaklan go‘zal, mazmunan teran va badiiy yuksak tarzda komil inson g‘oyasini kuyladi. Uning asarlarida oddiy fuqarodan podshohgacha, dehqon bo‘ladimi, talaba bo‘ladimi, hunarmandmi, savdogarmi, saroy amaldori yoxud shahzoda, sulton bo‘ladimi, bariga tegishli pand-nasihatlarni, hayotda o‘zini tutish, qanday axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish, millatga va davlatga xizmat qilishda qanday printsiplarga suyanish masalalarida atroflicha yo‘l-yo‘riqlar berilgan. Yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, bosh o‘rinda turadi. Yoshlarning jamiyatga, ota-onaga, ilm olishga, qadriyatlarga munosabatlari hamisha buyuk shoirimizning diqqat markazida bo‘lgan. Bu o‘gitlar bugun ham dolzarb» [3]. Shu boisdan ham shoira «Navoiy navosi jonlarga indi», deb yozadi.

Statistik ma'lumotlardan ma'lumki, ul tabarruk zot she'r yozishda faqatgina o‘zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanmay boshqa tillardan ham unumli foydalanganlarki, bu buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabi, urdu, xitoy,

mo‘g‘ul va boshqa tillardan ham xabardorliklaridan dalolatdir. Bu borada O‘tkir Hoshimovning quyidagi e’tiroflari o‘rinli: «Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o‘z asarlarida 21197 ta betakror so‘z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so‘z ishlatgan» [6].

Bu kabi dalillar Navoiyning so‘z zahirasi nihoyatda ulkan, so‘z ma'nolarini anglash darajasi o‘ta yuksak, falsafasi pishiq va teran, qoldirgan ilmiy, ijodiy merosi ma'no ostida ma'no ifodalashiga ko‘ra tengsiz qudrat kasb etishidan guvohlik beradi.

Biz – XXI asr odamlari, iste’dodlilari, zamon peshqadamlari hali Navoiy darajasida yozish u yodda tursin, ul zotning yozib qoldirganlarini to‘laroq anglash darajasida shoirning «to‘pig‘i balandligiga chiqqa olish» baxtiga tuyassar bo‘lganimizcha yo‘q. O‘zini bilgan har bir vijdonli o‘zbek qatori bu holatdan otashqalb shoirra H.Xudoyberdiyeva ham aziyat chekadi va buni «Navoiyning qoni menda» she’ridagi misralarda shunday ifodalaydi:

*Yashayapman goh g‘ash, goho ko‘ngil to‘q, bolam,  
Ko‘kragimni kuydirar bir laxcha cho‘g‘, bolam.  
Borimni bor deyman senga, yo‘g‘im yo‘q, bolam,  
Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q.*

Ba’zan chet tillarini o‘z ona tilimiz hisobiga o‘rganish, o‘rgatishga zo‘r berilishi shoirani «dog‘laydi»:

*Qandayin xush, chet tillarda sayraymiz bugun,  
Bu jahonga chiqmoq yo‘li – yayraymiz bugun,  
Tilimizni qayroqtoshda qayraymiz bugun,  
Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q.*

Bugun ahli dunyo «Alisher Navoiy sharq Renessansining yirik namoyandasini sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin tutadigan yorqin shaxs» ekanligini to‘la-to‘kis tan oldi. Bu shoiraning –

*Navoiysiz-ku jahon yo‘q,  
Bor hayrat-ku o‘shanga... misralarida jo bo‘lgan, desak adashmaymiz.*

She’r, shoirlik, Navoiy dahosi haqida gap ketganda A.Oripovning gaplarini bu o‘rinda eslamay bo‘lmas: «She’r, men ayni Sharq she’riyatini nazarda tutyapman, shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. Bizning she’rimiz shuning uchun bashariyat nazmining gultoji hisoblanadi. Bu nazm zaminida hazrat Navoiydek zotlarning ulug‘ bir shajaradek qad rostlashiga, bu nazm zaminida shoh ham, gado ham shoir bo‘lishiga, bu zaminda valiylar ham baytlar ijod qilganiga sira ajablanmaslik kerak. Zero, bu adabiyot ilohiydir. Uning piri komillari bor. Uning xokdek faqir-u haqir muridlari bor» [2].

O‘zbeginning Halimasi turkiy ijodkorlar ichidan yana navoiylar chiqishini

Yaratgandan tilaydi. Odatda, biz chorasiz qolganimizda, xavf-xatar ko'nglimizga shubha solganda yoki umrning o'tkinchilagini eslatuvchi ayozli shamol tilib o'tganda olloohni eslab qolamiz: undan o'zimizga, yaqinlarimizga sog'lik, boylik, umr....so'rayveramiz, so'rayveramiz... Shoira esa:

*Olloh, bizlar karvon-karvon,*

*Mayli bo'z yo kimxbob yopgin,*

*Bir Navoiy top bizlardan,*

*Yoki bitta Temur topgin*, deya yolvoradi. Sababki, yurtga maddohlar emas, shuhratparastlar emas, shiori ilmi amal bo'lgan navoiylar kerak. Chunki el, yurt, xalq uchun «Navoiy uzun umrin, o'zin tikkan, bilasiz».

Halima Xudoyberdiyevaning «Navoiy – non» deb boshlanuvchi to'rtligini ilk bor o'qigan kishida hazrat mir Alisher Navoiy shaxsiyatiga, ijodiga jo'ngina baho berilgandek ko'rindi. Ammo chuqurroq mulohaza etilsa, bu mantiq o'zgarishi tayin.

Zero, inson zotining har kuni «*buyuk shoir*» yoki «*mutafakkir*»ga, «*mamlakat shohi*» yoki «*shoir*»ga, «*naziri yo'q donishmand*» yoki «*marjon to'la dengiz*»ga, «*g'azalnavis*» yoki «*avliyo*»ga, «*ummon*» yoki «*daryo*»ga ishi tushmaydi. Ammo non – inson zotining kundalik ehtiyoji. Bu biologik ehtiyoj irq, din, millat, elat, yosh yoki toifa tanlamaydi xuddi ma'naviy zarurat kabi.

Demak, kurra-yi zamindagi insoniyat uchun ma'naviy jihatdan «*Navoiy – non*». Hatto «*Navoiyga o'zin ursa, urma kofirni, Axir, nonga musulmon-u kofir birday och*». Xullas, ma'naviyochlikning davosi ham, ma'naviy yalang'ochlikning libosi ham, ma'naviy qashshoqlikning malhami ham hazrat mir Alisher Navoiy qoldirgan tengsiz ijodi, badiiy, didaktik merosda.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Навоий А. Қора кўзим.–Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

2. Орипов А. Жонфидолик (сўз боши) /Худойбердиева Х. Сайланма.–Тошкент: Шарқ, 2000.

3. Сирожиддинов Ш. Навоийни англаш – ўзликка қайтиш.  
[\(<https://saviya.uz>\)](https://saviya.uz)

4. Худойбердиева Х. Буюк қушлар.–Тошкент: Ўзбекистон, 2012.

5.Худойбердиева Х. Осойишта шам. Шеърлар, назм.–Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

6.<http://ferlibrary.uz/alisher-navoiy> Алишер Навоий

## МУНДАРИЖА

Зарипов Ботир Комилович АЛИШЕР НАВОЙ ИЖОДИ –БЕБАХО МАЊНАВИЙ МЕРОС.....	3
Хамидов Обиджон Хафизович НАВОЙИДАН МАДАД ОЛИБ, УЧИНЧИ РЕНЕССАНС САРИ .....	5
Ибрагимова Феруза Бахадировна НАВОЙ – ЮКСАҚ ҒОЯЛАР ТАРГИБОТЧИСИ .....	7
1-шўъба. АЛИШЕР НАВОЙНИНГ НАЗМИЙ МЕРОСИ	
Иброҳим ҲАҚҚУЛ НАВОЙ ШЕЪРИЯТИДА КАСБИ КАМОЛ ҒОЯСИ ВА ТАЛҚИНИ .....	9
Zilola Amonova LobarShokirova “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUNOJOT TALQINI.....	12
Odiljon Avaznazarov “FARHOD VA SHIRIN”DA YO’LOVCHI OBRAZI VA BADIY TUSH ALOQADORLIGI.....	16
Yunus Azimov “XIRADNOMAI ISKANDARIY” VA “SADDI ISKANDARIY” DOSTONLARINING MUQADDIMAVIY BOBLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	19
Назора Бекова ШОИРНИНГ ИККИ ТИЛДАГИ ШЕЪРИЯТИДА МАВЗУ, ҒОЯЛАР ТАЛҚИНИ ҲАМДА ШАКЛИЙ УНСУРЛАРДАГИ УЙГУНЛИК ВА МУШТАРАКЛИК.....	22
M. Boltayeva ALISHER NAVOIYNING PEYZAJ YARATISH MAHORATI.	29
Гудзина Виктория Анатольевна ТЕМА ПОЭТА В ЛИРИКЕ НАВОИ И ЗУЛЬФИИ.....	31
Гулова Аноргул, Абдуллаева Феруза Алишер Навоийнинг назмий асарлари – буюк мањнавий сарчашма.....	36
D.B.Dadajonova ALISHER NAVOIY RUBOIYLARIDA BADIY SAN`ATLAR.....	40
София Джумаева ЛИРИК ҚАҲРАМОН: ҲОЛАТ ВА ТАСВИР .....	42
Иботова Мадина МАҚОМИНГА ЕТАЙИН ДЕБ НАВОЙ АЙЛАР САЙР .....	45
Mahliyo Ibroimova “SITTAI ZARURIYA”NING YARATILISH TARIXI .....	49
Ismoilova Xumora, “DEVONI FONIY”DA ILOHIY-ISLOMIY QARASHLARNING BADIY-G’OYAVIY TALQINI .....	52
Ҳ.Ў. Каримов АЛИШЕР НАВОЙ ИЖОДИДА МАЙ ВА МАСТЛИК РАМЗИ.....	54
Ҳ.Р.Латипов, З.А. Носирова ОРИФЛАР НАФСШУНОСЛАРДИР .....	58
Mulloqulova Zebiniso HAYRAT UL-ABROR” НИКОYATLARINING HAYRATLARI.....	64

<i>Murodova Gulchehra</i> “HAYRAT UL ABROR” DOSTONIDAGI SO’Z TA’RIFI BOBI NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	68
<i>Шоҳиста Низомова</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ ШЕЪРИЯТИДА СУВ ВА ОЛОВ ОБРАЗИНинг ИФОДАЛАНИШИ.....	71
<i>G. S.Omarova, M. R. Bozorbayeva</i> “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA MUALLIF DADIY NIYATINING IFODALANISHI.....	76
<i>Ражабова Маърифат</i> САМАНДАР – АБАДИЙ ҲАЁТ ТИМСОЛИ .....	80
<i>Зулайҳо Раҳмонова</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ ИЖОДИЁТИДА ТАВБА ТАЛҚИНЛАРИ .....	84
<i>Sadullayeva Shahlo,Shamsiddinova Sitora</i> "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA HAYRAT VA FAQR-U FANO VODIYLARINI TASVIRLASHDA TAMSILUY HIKOYATNING AHAMIYATI.....	89
<i>Safarova Shahlola</i> “SABB’AI SAYYOR” DOSTONI HAMD BOBINING G’OYAVIY –BADIY TAHLILI.....	94
<i>Hilola Safarova, Mohigul Ismatova</i> ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI.....	98
<i>Sayliyeva Zarina</i> “HIRIY JON, BADANDIR XUROSON ANGA...” .....	100
<i>G. Sayidova</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI O’XSHATISHLARNING TASNIFI .....	104
<i>H. H. Тешаев</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАҶНАВИЙ КАМОЛОТИ .....	107
<i>Xudoyorova Nigora</i> NAVOIY NAZMINING JIOLARI .....	111
<i>Д.К.Эргашева</i> ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АЛИШЕРА НАВОИ .....	113
<i>Ergasheva Naima</i> ALISHER NAVOIY G’AZALLARIDA TANOSUB SAN’ATI .....	118
<i>Хусниддин Эшонқулов</i> МАҶШУҚА ВА ОШИҚ ҲОЛИГА ХОС ИСТИОРАЛАШГАН ЭПИТЕТЛАРНИНГ ҚОФИЯЛАНИШИ .....	120
<i>G. Sh.Qobilova</i> “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING ILMIY-TANQIDIY MATNINI YARATISHDA ASOS BO’LGAN MANBALAR .....	124
<i>Дилрабо Қувватова, Зарнигор Соҳибова</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ ВА ОГАҲИЙ ШЕЪРИЯТИДА БАҲОР ТАСВИРИНИНГ МУШТАРАК ЖИҲАТЛАРИ..	126
<i>Halimova Shahlo</i> ALISHER NAVOIY TARJE’BANDLARINING TASVIR MOHIYATI .....	130
<i>HojiyevaNigina</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ	133
<i>Azimjon Hamidov</i> ALISHER NAVOIY G’AZALLARI NASHRIDAGI AYRIM TAFOVUTLAR HAQIDA MULOHAZALAR .....	137
<i>Vaxobova Shoxida</i> “MUNSHAOT” MAKTUBLARIDA NAVOIY QARASHLARINING AKS ETISHI .....	140

2-шўъба. АЛИШЕР НАВОЙНИНГ НАСРИЙ МЕРОСИ	
Н.Бекова, Ж.Шаропов «РУҲ УЛ -ҚУДС»ДА ЙИЛ ФАСЛЛАРИ ТАЛҚИНИ .....	145
<i>Gulova Anorgul, Axmadova Farangiz</i> “МАНВУБУЛ –QULUB” ASARI – ALISHER NAVOIY NASRIY MEROSINING DURDONASI.....	149
<i>Сайдова Раҳон</i> “НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ”ДА МАЛОМАТ ВА МАЛОМАТИЙЛИК .....	152
<i>Sodiqova Dilorom</i> HADISLAR BADIY TALQINIDA NAVOIY VA MISKIN IJODIDAGI UYG`UNLIK.....	156
<i>Sherxon Qorayev</i> ALISHER NAVOIY ADABIY MAJLISLARI.....	160
<i>Ғайрат Муродов</i> ЗАМОНАВИЙ РОМАНДА АЛИШЕР НАВОЙ СИЙМОСИ .....	164
<i>Шавкат Ҳайитов</i> КОМИЛ ЖАМИЯТ ВА КОМИЛ ИНСОН ОРЗУСИ .....	171

### 3-шўъба. АЛИШЕР НАВОЙНИНГТИЛМИЙ МЕРОСИ ВА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ

<i>Маматқул Жўраев</i> АЛИШЕР НАВОЙ ҲАҚИДАГИ ХАЛҚ РИВОЯТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХИГА ДОИР .....	177
<i>Ўраева Дармоной, Назарова Гулбаҳор</i> НАВОЙ ҒАЗАЛЛАРИДАГИ МИФОНИМЛАРНИНГ АСЛИЯТ ВА ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ .....	186
<i>Собит Авезов</i> НАВОЙ ИЖОДИДА ФОЛЬКЛОР АНЬАНАЛАРИ .....	190
<i>Арипова Халима</i> АЛИШЕР НАВОИ И УЗБЕКСКИЕ МАКОМЫ .....	195
<i>Bozorova Lobar</i> ALISHER NAVOIYNING XALQ SAN'ATI VA UNING TURLARIGA DOIR MULOHAZALARI .....	197
<i>Мунис Жўраева</i> НАВОЙНИНГ “ФАРҲОД ВА ШИРИН” ДОСТОНИНИНГ ЎЗБЕК ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИГА ТАЪСИРИ .....	201
<i>Rajabova Ra`no</i> ALISHER NAVOIY IJODIDA FOLKLOR AN'ANALARI .....	203
<i>Kamildjanov Muxammadjon Ne'matjonovich</i> ALISHER NAVOIY ILMIY MEROSIDA KOMIL INSON MAVZUSI .....	206
<i>Rustamova Gavhar</i> ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA DARAXTLAR BILAN BOG'LIQ OBRAZLARNING BADIY IFODASI .....	210
<i>Turdiyev Bexruz Sobirovich</i> NAVOIY ILMIY MEROSI - MILLIY MA'NAVIIY YANGILANISHIMIZ POYDEVORI .....	213
<i>Тўраева Лайло</i> АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ДЕҲҚОНЧИЛИККА МУНОСАБАТ ИФОДАСИ .....	216
<i>Худайқурова Ламифа</i> ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИ СЮЖЕТИДАГИ МОТИВЛАРНИНГ “МАЖОЛИСУН-НАФОИС” ДА АКС ЭТИШИ .....	218
<i>Hikmatova Nigina</i> ALISHER NAVOIY – ILM HOMIysi .....	221

<i>Qalandarov Hamza ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ISLOM TA'LIMOTI VA TASAVVUF G'OVYALARI</i> .....	224
<i>Qilichev R. ALISHER NAVOIY SURATINI CHIZGAN MUSAVVIRLAR</i> . ....	226
Шабнам Юсуфзода “МУҲОКАМАТУЛ-ЛУҒАТАЙН” АСАРИДА “ДЕВОНИ ФОНИЙ” ШАРҲИ.....	229
<i>Muhtaram Ражабова ALISHER NAVOIYNING SIYOSIY HUQUQIY QARASHLARI</i> .....	233
4-шўъба. АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ТИЛШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ <i>М.К.Абузалова, У.Ш.Аҳмадова</i> НАВОИЙ ШАХСИНИ ИФОДАЛОВЧИ ПЕРИФРАЗАЛАР .....	237
<i>Атоулло Ахмедов</i> НАВОИЙ АСАРЛАРИДА АДАБИЙ МЕЪЁР .....	241
Ёқуб Саидов«МУҲОКАМАТУЛ-ЛУҒАТАЙН» АСАРИНИНГ ИЛМИЙ-ТАРИХИЙ АҲАМИЯТИ .....	244
<i>Бибии Жўраева</i> ЭЛИГА ЎЗЛИГИН ТАНИТГАН ДАҲО .....	248
<i>Х.А. Арипова, Н.Н. Розикова</i> АЛИШЕР НАВОИ О КУЛЬТУРЕ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....	251
<i>B.E.Kilichev</i> “MUHOKAMAT UL-LUG□ATAYN” VA SO□ZLARARO MA’NOVIY MUNOSABAT .....	257
<i>Г.Тоирова, Г.Хайруллаева</i> НУТҚНИ ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ РАЗМЕТКА ҚИЛИШ ТИЗИМИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ .....	260
<i>Г.Тоирова, Н.Ҳамроева</i> НУТҚ ОДОБИ НАВОИИ НАЗМИДА .....	263
<i>D.A.Axmadova</i> “LISON UT – TAYR”DA МЕТАFORALAR .....	266
<i>Н.Жахонова</i> НАВОИЙ ҚЎЛЛАГАН ЎҲШАТИШЛАРНИНГ ЛУҒАВИЙ МАЬНОВИЙ ГУРУҲЛАРИ ХУСУСИДА .....	269
<i>Норова М.Ф.</i> АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА КЎМАКЧИЛАРНИНГ СЕМАНТИК-СТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....	273
<i>Sevara Po'latova</i> ALISHER NAVOIY IJODIDA AREAL LINGVISTIKA ...	276
5-шўъба. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИНинг ТАРЖИМАЛАРИ, ХОРИЖДА ЎРГАНИЛИШИ ВА АДАБИЙ ТАЪСИР МАСАЛАЛАРИ <i>Ф.А.Муминов</i> БЫЛ ЛИ АЛИШЕР НАВОИ СУФИЕМ И МИСТИКОМ? 279	
<i>Д.С.Ўраева, З.Б.Джалилова</i> АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ГУЛЛАР ОБРАЗИНинг АСЛИЯТ ВА ИНГЛИЗЧА ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ 285	
<i>M.I.Gadoeva</i> ALISHER NAVOIY G`AZALLARIDA QO'LLANILGAN “BAG'IR” SOMATIZMINING INGLIZCHA VA RUSCHA TARJIMADA BERILISHI .....	288
<i>Mehrigiyo Jo□rayeva</i> NAZM VA NAVODAGI HAMOHANGLIK .....	292
<i>D.A.Nasriyeva</i> NAVOIY ASARLARINING TARJIMADAGI O'RNI .....	294

З.Л.Умурев	ЗАҲИРИДДИН	МУҲАММАД	БОБУРНИНГ
БОБУРНОМА”СИДА АЛИШЕР НАВОЙЙ ВАСФИ .....			298
<i>M.Q.Choriyeva ABDURAHMON TAMKIN VA U YASHAGAN DAVR</i>			
IJODKORLARI IJODIGA ALISHER NAVOIY ASARLARINING			
TA’SIRI .....			301
<i>D.I.Haydarova GHAZALS OF ALISHER NAVOIY THROUGH THE EYES OF</i>			
DENNIS DALY .....			304
<i>I.O.Hamidova “МА’NAVIYAT” (SPIRITUALITY) IN UZBEK AND ENGLISH</i>			
LANGUAGES .....			305
6-шўба. АЛИШЕР НАВОЙЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНинг ТАЪЛИМ			
МУАССАСАЛАРИДА ЎҚИТИЛИШИ МУАММОЛАРИ			
<i>Aхмедова Шоира ЭССЕДА БУЮК ШОИР ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ .....</i>			310
<i>Боқижон Тўхлиев АЛИШЕР НАВОЙЙ АСАРЛАРИ ШАРҲИ – ЎҚУВЧИ-</i>			
ЛАРДАГИ АДАБИЙ ҚИЗИҚИШЛАРНИ ОШИРИШ ОМИЛИ .....			314
<i>Bafoyeva Nigora, Quvatillayeva NIGINA LITSEY VA MAKTAB</i>			
DARSLIKLARIDA NAVOIY IJODINING O’RGANILISHI .....			318
<i>Berdiyev X.X., Zaripova Zulfizar MAKTAB DARSLIKLARIDA ALISHER</i>			
NAVOIY LIRIKASINING O’RGANILISHI .....			321
<i>Gulova Anorgul, Xoliquulov Muhammad HAZRAT NAVOIY ASARLARINI</i>			
O’RGANISH KO’ZGUSI .....			325
<i>Давронова Шоҳсанам УЛУҒБЕК ҲАМДАМ ИЖОДИДА НАВОЙЙ</i>			
АНЬАНАЛАРИ .....			329
<i>Mirsharipova Shahzoda TARIXIY ASARLARDA ALISHERNING BOLALIGI</i>			
TAIQINI .....			335
<i>Насима Қодирова КИЧИК ЖАНРЛАР ТАҲЛИЛИ ОРҚАЛИ НАВОЙЙНИ</i>			
ЎРГАТИШ МАСАЛАЛАРИ .....			338
<i>Нигора АБДУСАЛОМОВА НАВОЙЙ ҲАҚИДАГИ ФОЛЬКЛОР</i>			
АСАРЛАРИНИ ОММАЛАШТИРИШДА АКАДЕМИК ТЎРА МИРЗАЕВ			
ИЛМИЙ ИЖОДИНинг ЎРНИ .....			342
<i>Норова Насиба УСМОН ҚЎЧҚОР ИЖОДИДА НАВОЙЙ ОБРАЗИ .....</i>			345
<i>Nafosat O’roqova , Nigora Shomurodova NAVOIYIJODINI O’RGANISHDAGI</i>			
AYRIM MASALALAR .....			349
<i>Obidjon KARIMOV HOZIRGI YOSHLAR MA’NAVIYATINI</i>			
RIVOJLANTIRISHDA ALISHER NAVOIYNING O’RNI .....			352
<i>Qudratova Muborak FITRAT – “FARHOD VA SHIRIN”</i>			
TADQIQOTCHISI .....			355
<i>Rajabov Dilshod Zaripovich, Ahrorova Nigina Anvarovna O’RTA MAKTABDA</i>			
ALISHER NAVOIY QIT’ALARINI O’RGANISH .....			358

<i>Yuldasheva Dilorom Nigmatovna MIR ALISHER NAVOIY: BILIM O'ZLASHTIRISHNNG GRADUAL BOSQICHLARI</i> .....	361
<i>Yusupova Dildora Yunus qizi, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna «NAVOIY – NON...»</i> .....	365
<i>Tешаев Нутфулло Насруллоевич АЛИШЕР НАВОИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН МАЬНАВИЙ КАМОЛОТИ</i> .....	369
<i>Умринисо Тўраева АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ БЕГАЛИ ҚОСИМОВ ТАЛҚИНИДА</i> .....	373
<i>Zoyirova Go'zal Nematovna NAVOIYNI SUYGAN EL</i> .....	377
<i>Omarova Gavhar Sadikovna, Alimboyeva Sabohat ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI- YOSHLAR MA'NAVIY YUKSALISHI VA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI.</i> .....	381
<i>Рўзигул Қодирова АЛИШЕР НАВОИЙ БАЙТЛАРИ ШЕЪРШУНОС ОЛИМ НИГОҲИДА</i> .....	383
<i>Олтиной Қурбонова НАВОИЙГА ЭҲТИРОМ</i> .....	386
<i>Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich “DEVONI FONIY”NI ТОЛІКЗАБОН МАКТАBLARIDA O'QITISH MUAMMOLARI</i> .....	389